

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHDA “HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASI TO’G’RISIDA”GI QONUNING O’RNI VA
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA
OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
2-o‘quv kursi 206-guruh kursanti **Abdihamidov Davron Shavkat O‘g‘li**
Ilmiy rahbar – podpolkovnik **Shoumarov Ziyoviddin Shamsiddinovich**,
Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada profilaktika inspektorlari tomonidan tashkil etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktikasini tashkil etishning huquqiy asosi bo‘lmish “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi va uning huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi ahamiyati, uning maqsadi va uni amalga oshirish jarayonida kuzatilayotgan kamchiliklar va bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorij mamaqlakatlarning eng ilg‘or tajribasidan namunalar keltirish orqali mavjud profilaktika chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish orqali jinoyatchilikni oldini olish va mavjud huquq tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan hisoblanadi.

ANNOTATION

In this article, the adoption of the Law "On Prevention of Crimes", which is the legal basis for the organization of general, special, individual and victimological prevention of crimes organized by preventive inspectors, and its importance in the implementation of crime prevention, its purpose and its implementation the shortcomings observed in the process and in order to eliminate these shortcomings, it is aimed at further improving the existing preventive measures by bringing examples of the best experience of foreign countries aand preventing crime and further improving the existing legal system by implementing the prevention of offenses.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается принятие Закона «О профилактике правонарушений», являющегося правовой основой организации общей, специальной, индивидуальной и виктимологической профилактики преступлений, организуемых инспекторами-профилакториями, и его значение в

осуществлении профилактики правонарушений, своей цели и ее реализации выявлены недостатки, наблюдаемые в процессе, и в целях устранения этих недостатков она направлена на дальнейшее совершенствование действующих мер пресечения путем приведения примеров передового опыта зарубежных стран и предупреждения преступности и дальнейшее совершенствование действующей правовой системы путем осуществление профилактики правонарушений.

О'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach o'z mamlakatining qonunchilik tizimini takomillashtirish borasida islohotlar jarayonini sekin-sekin amalga oshira boshladi va bu jarayon 2014 yil 14 may sanasida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan bu sohada islohotlar yanada jadal sur'atlar asosida amalga oshirila boshlanishiga turtki bo'ldi. Buning asosiy maqsadi: O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish shuningdek, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash, barham berish va ushbu huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish va jamiyatda tinchlik, osoyishtalikni ta'minlash, mamalakatimizda qonun ustuvorligini ta'milashga qaratilmoqda. Shu bois ushbu maqolamda profilaktikani tashkil etish jarayoni uning chora-tadbirlari amaliyotda kuzatilayotgan ayrim muammolar va bu muammolarni hal etish yuzasidan xorij mamalakatlarini tajribasini qo'llash va bu borada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari keltirib o'tilgan.

O'zbekistonda fuqarolarning tinch hayot kechirishi va ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchining ortishi ushbu organlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlarining samarali tashkil etilganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash va jamiyatning har bir a'zosi xafsiziligini ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlarining manfaatdor vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorligi asosida keng ko'lamli profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitini tizimli ravishda o'rganish maqsadida «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» doirasida tashkil etib kelinayotgan tadbirlarda pasport tizimi qoidalarini buzish, noqonuniy o'q otar qurolar va narkotik vositalarni saqlash holatlari aniqlanmoqda. Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi osh boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, mazkur yo'nalishda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning ohirgi uch oyi davomida 100 mingdan ortiq shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi, 300 dan ortiq qidiruvdagi jinoyatchilar qo'lga olindi. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbiri sifatida 160 mingdan ortiq profilaktika suhbatlar o'tkazildi. Asosiy

e'tibor, voyaga yetmaganlar va yoshlar tariyasiga qaratilib, o'quvchi va talabalarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning ta'lim muassasalaridagi davomatini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mart oyida voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning darajasi 2 foizga, yoshlar o'rtasida 2,4 foizga, shu jumladan kollej va litsey o'quvchilari o'rtasida 10,9 foizga, oliy ta'lim muassasalarida 39,5 foizga kamaydi. Huquqbuzarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning samarali amalga oshirilishi, birinchi navbatda hamiyatning har bir a'zosi davlat kelajagiga befarq bo'lmasligi lozim. Shularni inobatga olgan holda Ichki ishlar vazirligi barcha davlat organlari, tashkilotlar va jamoatchilik tuzilmalarini, shuningdek, fuqarolarni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» samarali o'tkazilishi hamda huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol hamkorlikka chorladi.

O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan “Adolat” nashriyoti tomonidan o'zbek va rus tillarida hamda lotin imlosida yaxlit kitob holida 5000 nusxada nashr qilindi. Mazkur qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga, ayniqsa yoshlarga tushuntirish bo'yicha Adliya organlari va muassasalari, jumladan, “Adolat” nashriyoti xodimlari tomonidan ham bir qator targ'ibot tadbirlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, u mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Qonunda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llari haqida aniq maqsadlar ko'zda tutilgan. Barchamizga yaxshi ma'lumki, ichki ishlar, prokuratura organlari, Milliy xavfsizlik xizmati, adliya, davlat bojxona xizmati, davlat soliq xizmati, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari, sog'liqni saqlash muassasalari, O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar hisoblanadi. Biroq, qonun targ'ibotidan ko'zlanayotgan maqsad — uning aholi, ayniqsa, yoshlar hayotiga keng kirib borishiga erishishdir! Sababi, aynan aholining yosh avlod vakillari hayotida huquqbuzarliklar sodir etilishi ko'p uchraydi. Yoshlar hayoti huquqbuzarliklar sodir etilishi debochasi hisoblanadi. Shu boisdan ham, yoshlarga qonun mohiyati keng tushuntirilmoqda. Ushbu qonun mahallalar, nodavlat tijorat tashkilotlari, fuqarolarning

ham profilaktik tadbirlarda ishtirok etishiga yo'l beradi. Qonunda birinchi navbatda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash muhim ekanligiga alohida urg'u berilgan. Avvalo, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'lidan borish samarali ekanligi ham inobatga olingan.

Qonun aynan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasiga e'tibor qaratadi. Bu huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bilan yakka tartibda shug'ullanishni talab etadi. Ya'ni, qonunda shunday shaxs bilan profilaktika suhbatini olib borish, uni rasmiy ogohlantirish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga yuborish, majburiy nazorat qilish va shu kabi boshqa yo'nalishlar belgilangan.

Qonunga asosan, o'ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslar o'ziga nisbatan qo'llanilayotgan choralarning huquqiy oqibatlarini bilishga, o'ziga nisbatan to'plangan hujjatlar, boshqa materiallar bilan tanishishga haqli. Shuningdek, uning iltimos qilishga, yuridik yordam olishga, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchining qarorlari, mansabdor shaxslarning o'ziga nisbatan ko'rgan choralari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli ekanligi ham belgilangan.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda qonunchilik sohasida olib borilayotgan islohotlarning uzviy davomidir. Uning alohida ahamiyati shundaki, nafaqat, uning ijrosiga mas'ul idora xodimi, balki, huquqlarini yaxshi bilgan har bir inson ham yon-atrofdagi jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan zamondoshiga, yaqini yoki mahalladoshiga bu yo'lning boshi berk ko'cha ekanligini tushuntirishga intiladi va uni nojoiz yo'ldan qaytarishni Vatan oldidagi burchi deb biladi. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonun aynan shu maqsadni ko'zlaydi!

Yuqorida keltirib o'tilgan so'zlarni inobatga olgan holda huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari maqsadi va vazifalriga birma-bir to'xtalib o'tish lozim chunki mavjud muammoni o'rganmay turib, uni yechimini topish mushkul albatta.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari esa quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- insonparvarlik;
- tizimlilik;
- ishontirish usulining ustuvorligi;
- ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish.

Yuqorida keltirib o'tilganlar huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'ridagi qonuda aniq belgilanib mustahkamlab qo'yilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasining yakka chora-tadbirlari sirasiga kiruvchi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish qilish chora-tadbirlarining amaliyotda hech qanday huquqbuzarliklarni oldini olishda ahamiyatga ega bo'lmasdan qolmoqda ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilingan korxonalar muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari buni bartaraf etish yuzasidan biron-bir chora-tadbir amalga oshirmayaptilar bu esa o'z navbatida mavjud qonun normasining amalda ijrosi yuzasida biron bir yuridik harakat kelib chiqmasligida namoyon bo'lmoqda. Buni bartaraf etish uchun huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilingan korxonalar, muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aynan kelib tushgan xabar yuzasidan ma'lum vaqtdan so'ng qilingan ishlar yuzasidan ma'lumot taqdim etilishini amaliyotga joriy etish amalda bu profilaktika chora-tadbirlarining huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo'llashdagi o'zini samarali o'rniga ega ekanligini isbotlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamalakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, barham berish va huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali yurtimizda : huquq tartibotni saqlash, fuqorolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini shuningdek, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini, mulkchilikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari ushbu qonun va uning asosida amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlarining tub mohiyatini inson va uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning bu borada quyidagi so'zlari mavjud ya'ni : " Islohot islohot uchun emas, balki inson va uning manfaatlarini uchun" deya aytgan so'zlari buni yaqqol dalili sifatida tasdiqlaydi. Bundan muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bu borada quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tganlar ya'ni: " Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi lozim". Bu aytib o'tilgan fikrlarning barchasida inson va uning manfaatlarini yotibdi. Demak har bir amalga oshirilgan ishlarning samrasi inson uchun uning tinchligi, osoyishtaligi va forovon hayoti uchundir, shuning uchun mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash davlat va jamiyat taraqqiyoti kafolati demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005
3. "O'zbekiston Respublikasida interpolning milliy markaziy byurosini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Maxkamasining 29.11.1994 yil 574-son qarori
4. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)
5. 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196 son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma'ruzasi
7. 2021 yil 30 noyabr "Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo'nalishdagi bilimlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
8. "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005